

## BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLIGINI TAVSIFLOVCHI NAZARIY-METODOLOGIK YONDASHUVLAR VA UNING TARKIBIY KOMPONENTLARI

Boboyorov Shuhratjon Suvonqulovich

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti  
mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20699327>

**Annotatsiya:** integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarix o'qituvchilarda kasbiy kompetentlilik sifatini, ularda erkin, faol, mustaqil fikrlay olish, o'quv-tarbiyaviy jarayonni modellashtira olish, o'quv-tarbiya tizimini yangilash va takomillashtirish bugungi kunning eng dolzarb masalalari ekanligi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy kompetentlilik, "Barkamol inson"ni shakllantirish, kasbiy pedagogik kompetensiyalar, o'qituvchilik mahorati, integrativ fazilat.

**Аннотация:** На основе интегративного подхода анализируется, что качество профессиональной компетентности будущих учителей истории, их способность мыслить свободно, активно и самостоятельно, умение моделировать образовательный процесс, а также обновление и совершенствование образовательной системы являются наиболее актуальными проблемами современности.

**Ключевые слова:** профессиональная компетентность, формирование «идеального человека», профессионально-педагогические компетенции, педагогическое мастерство, интегративная добродетель.

**Abstract:** Based on an integrative approach, it is analyzed that the quality of professional competence of future history teachers, their ability to think freely, actively, and independently, the ability to model the educational process, as well as the renewal and improvement of the educational system are the most pressing issues of today.

**Keywords:** professional competence, formation of a "perfect person", professional pedagogical competencies, teaching skills, integrative virtue.

Zamonaviy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o'qituvchining kasbiy faoliyatiga qo'yilayotgan talablarni tubdan yangilamoqda. Ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o'qitishning zamonaviy metod va vositalaridan samarali foydalanish, ta'limni raqamlashtirish hamda fanlararo integratsiyani kuchaytirish pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishni ustuvor vazifaga aylantirmoqda. Shu nuqtayi nazardan, bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlashtirish va uning tarkibiy komponentlarini ilmiy jihatdan asoslash dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Kasbiy kompetentlik pedagogning kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beruvchi bilim, ko'nikma, malaka, qadriyatlar, shaxsiy sifatlar va refleksiv tajribalar integratsiyasi sifatida talqin etiladi. Tarix o'qituvchisining kasbiy kompetentligi esa tarixiy tafakkurni shakllantirish, tarixiy manbalarni tahlil qilish, o'quvchilarda fuqarolik pozitsiyasi va milliy o'zlikni anglash kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish qobiliyatini ifodalaydi.

Mazkur kompetentlikni tadqiq etishda kompetensiyaviy, tizimli, integrativ, faoliyatli, shaxsga yo'naltirilgan va refleksiv yondashuvlar muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Kompetensiyaviy yondashuv bo'lajak tarix o'qituvchisining amaliy faoliyatga tayyorligini ta'minlasa, integrativ yondashuv tarix, pedagogika, psixologiya va axborot texnologiyalari bo'yicha bilimlarning o'zaro uyg'unlashuviga imkon yaratadi. Faoliyatli yondashuv kasbiy tajriba orttirish va amaliy muammolarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilsa, refleksiv yondashuv pedagogning o'z faoliyatini tahlil qilish va takomillashtirish mexanizmlarini shakllantiradi.

Bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi tarkibiy jihatdan quyidagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

Motivatsion-qadriyatli komponent – kasbga sadoqat, pedagogik faoliyatga qiziqish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat;

Kognitiv komponent – tarix fanlari, pedagogika, psixologiya va metodika bo'yicha nazariy bilimlar tizimi;

Operatsion-faoliyatli komponent – ta'lim jarayonini loyihalash, tashkil etish va boshqarish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalari;

Kommunikativ komponent – pedagogik muloqot, hamkorlik va ijtimoiy munosabatlarni samarali yo'lga qo'yish qobiliyati;

Refleksiv komponent – o'z kasbiy faoliyatini baholash, tahlil qilish va uzluksiz rivojlantirishga yo'naltirilgan qobiliyatlar.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy merosida ham bilimlar integratsiyasi, fanlararo bog'liqlik va komil inson tarbiyasi masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad al-Xorazmiy kabi allomalar ilm-fanlar o'rtasidagi uzviy aloqadorlikni inson kamolotining muhim omili sifatida baholaganlar. Ularning qarashlari bugungi kunda bo'lajak tarix o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini integrativ yondashuv asosida rivojlantirishning metodologik manbalaridan biri hisoblanadi.

Shu o'rinda o'qituvchining yetuk mutaxassis sifatidagi kasbiy kompetentligini rivojlantirish o'sib kelayotgan yoshlarning mehnat faoliyatlarida o'z o'rnini topishlariga, sifatli ta'lim olishlariga, shaxslararo ijtimoiy-madaniy muloqotlarini shakllantirishga yordam berishi kerak, biroq bunda eng muhimi - shaxsni talabga to'la javob beradigan darajada rivojlantirish va uning o'z imkoniyatlarini amalga oshirishi uchun zaruriy sharoitlarni yaratish dolzarb muammodir.

Aynan shuning uchun pedagoglar tayyorlash ta'lim jarayonining asosiy vazifasi zamonaviy o'qituvchini kasbiy-pedagogik tayyorgarligining ajralmas qismi bo'lgan asosiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak.

#### **Zamonaviy o'qituvchining asosiy kompetensiyasi quyidagilardan iborat:**

O'z “ta'limiy kamchiliklari”ni mustaqil tuzatib, talabalar bilan birga o'qishni bilish.

Talabalarning mustaqil faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishni bilish.

O'quv jarayonini sahnalashtirish bunda turli xil faoliyat usullaridan foydalanish, ularga talabalarning moyilligi va qiziqishiga qarab ishlarni taqsimlash ko'nikmasiga ega bo'lish.

Tadqiqotchilik tafakkuriga, talabalarda tadqiqotchilik ko'nikmasini tashkil etishni bilishi kerak.

Talabalarning yutuq va rivojlanishlarini baholash tizimidan foydalanish.

O'quv jarayonida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishni bilish.

Dars jarayonida suhbat va bahs-munozara olib borish, talabalar o'zlari xohlab aytmoqchi bo'lgan fikr, qarash va munosabatlarini bayon eta olishlariga yo'naltirilgan muhit yaratish. Nafaqat

talabalar bir-birlari bilan balki, o'qituvchi bilan ham shaxsiy qarash va munosabat, tanqidlarni tahlil qilishlari kerak.

Kasbiy pedagogik kompetensiyalarini ishlab chiqish eng murakkab pedagogik muammo, eng dolzarb masala ekanligini ta'kidlar ekanmiz, bu borada aniq ishlab chiqilgan o'lchovlar yo'qligini ham tan olishimiz lozim. Oliy ta'lim o'qituvchisi kasbiy kompetensiyasi tizimi pedagogning mahoratida ko'zga tashlanadi. Biz yuqorida keltirgan o'qituvchining kompetensiya modelini uning kasbiy tayyorgarligi modeli desak xato qilmaymiz. Kasbiy kompetensiyaning eng muhim qirralaridan biri o'qituvchi-pedagogning nazariy tayyorgarligi masalasidir.

Demak, o'qituvchilik mahorati integrativ fazilat (sifat) bo'lib, yuqori darajadagi madaniyat, bilim, malaka, amaliy qobiliyatlarni o'zida mujassamlashtiradi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T. 1.-Toshkent: O'zbekiston. 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.- Toshkent: O'zbekiston. 2017.
3. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. – Toshkent: Sano-standart, 2015. – 120 b.
4. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M.H. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 262 b.
5. Zeer E.F. Psixologiya professionalnogo obrazovaniya. – Moskva: Akademiya, 2013. – 416
6. Khutorskoy A.V. Klyuchevye kompetensii kak komponent lichnostno-oriyentirovannoy paradigmy obrazovaniya // Narodnoye obrazovaniye. – 2003. – №2. – S. 58–64.